“Yangi Andijon” shahri hududida seysmologik tadqiqotlar davom etmoqda

Avval xabar qilganimizdek, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti xodimlari “Yangi Andijon” shahri hududidini seysmik mikrorayonlashtirish xaritasini yaratish uchun seysmologik, seysmotektonik va muhandis-seysmologik tadqiqotlarini olib bormoqdalar.

Shu munosabat bilan Andijon viloyati hokimiyati tassarufidagi “Yangi Andijon” Direksiya DUK binosi majlislar zalida “Yangi Andijon” hududida olib borilayotgan bunyodkorlik va ilmiy tadqiqot ishlari bo’yicha tayyorlangan hisobotlarini taqdimoti bo’lib o’tdi.

Taqdimot davomida O’zR FA Seysmologiya instituti ilmiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari, g.-m.f.d., prof. V.A.Ismailov tadqiqot hududida olib borilgan ishlar to’g’risida ma’ruza qildi.

Ushbu ilmiy tadqiqotda Seysmologiya institutining yetuk olimlari tomonidan 2021-yil 4-dekabrdan 2022-yil 28-fevralgacha vaqt davomida 221 punktda seysmorazvedka, 70 ta punktda elektrorazvedka, 150 ta punktda mikroseysmik dala tadqiqotlari olib borilganligi, shuningdek, tadqiqot hududida 8 tayanch punktda seysmik stantsiyalar o’rnatildi hamda tadqiqot hududida va uning atrofida ta’sir kuchi yuqori bo’lmagan 250 ga yaqin zilzilalar qayd etilganligi, dala tadqiqotlarini olib borish jarayoni bilan parallel ravishda ma’lumotlarni qayta ishlash ishlari ham olib borilganligi aytib o’tildi. Olib borilgan dala tadqiqotlari va fond ma’lumotlari tahlili asosida ilmiy asoslangan seysmik mikrorayonlashtirish xaritasida “Yangi Andijon” hududidagi 8 va 9 balli seysmik ta’sir zonalar baholanganligi keltirildi. Hududda olib boriladigan qurilish va loyihalash ishlarida ushbu xarita asos bo’lishi haqida tushunchalar berildi.

Taqdimot davomida ommaviy axborot vositalari vakillari o’zlarini qiziqtirgan barcha savollariga mutaxassislardan javoblar oldilar.